

## O'yin bola faoliyatining asosiy turi, Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yin jarayonini tashkil etish.

***G'ayratilloyeva Lola Jamshidovna.***

Navoiy Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabasi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'yining bola hayotidagi o'rni, uning ta'limi, tarbiyaviy ahamiyati. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yin jarayonini tashkil etish undan olinadigan natija, samara, mazmun haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** O'yin turkumlari, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar.

### **Kirish**

O'yin bu bolaning hamrohi, do'sti, quvochidir. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bola ruhiy holati namoyon bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashni asosiy turi bo'lib bola o'yin o'ynash davomida atrof muhitda, oilada ko'cha-ko'yda, do'stlar va kattalar orasidagi o'zaro munosabatni, holatni o'yin o'ynash jarayonida sodda holatda namoyon qiladi. Undan tashqari ta'lif berishda, ta'limni samarali, mazmunli o'tkazishda o'yinning roli benihoya katta. Jumladan MTT larida mavzu yuzasidan o'tkazilgan bir-biridan qiziqarli, rang-barang, didaktik o'yinlar bolalarni qiziqishini oshirib, qabul qilish jarayonini yaxshilash uchun xizmat qiladi. MTT larining dars mashg'ulotari davomida o'yin jarayonini tashkil etishda tarbiyachi quyidagilarga rioya etishi lozim.

-o'yin bilan ta'lif, tarbiya, mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.

-o'yin o'ynash orqali bolalarning jismoniy ruhiy holatlarini tarbiyalash.

Shunday qilib MTT ning pedagogik jarayonida o'yining tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berishda keng foydalaniladi. Taniqli pedagok olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yining mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligi ko'rsatilgan.

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiatini, va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin bolaning barcha qobilyatlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavurlar doirasi kengayadi vaboyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va Bolani uyg'un rivojlanish davri sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yiniga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat beradi. Usheniskiyning fikriga ko'ra; Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, u insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan. Bu o'yinlar o'z navbatida turkumlarga bo'linadi; bularga Ijodiy o'yinlar va Qoidali o'yinlar kiradi.

Ijodiy o'yinlarni bolalarni o'zлari o'ylab topishadi. Bu o'yinlarda hech qanday qoidalar bo'lamaydi. O'yin jarayonida tartib qoidani bolalar o'zлari xoxlagandek belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlar sirasiga quyidagilar kiradi; Didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlari. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda uning samarali mazmunli berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim va tarbiya dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu esa bolaning aqliy kuchini ishga solidi, tafakkurini, xayolini, diqqatini, xotirasini faollashtirishni talab etadi, bola hayotiy masalalarni mustaqil hal qilishga o'rghanadi, ishini samarali, mazmunli bo'lishi uchun yo'llar izlab topadi. O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularni fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bu o'yinlar orqali juda katta tarbiyaviy masalalar hal qilinadi. Qoidali o'yin bolalarning sensor rivojlanishini tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqati va xotirasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ta’limning o’yin shaklida bo’lishi muhim ahamiyatga ega bo’lib , bolaning yosh xususiyatlari mos keladi. Mavzuga mos qiziqarli o’yin bolalarni aqliy faoliyatini oshiradi, o’yinda bola mashg’ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal etishi mumkin. Bu ta’lim butunlay o’yin shaklida bo’lishi kerak degani emas. Ta’lim samarali bo’lishi uchun turli usul va metodlarni qo’llashni talab etadi. Bola o’ynayotib o’z bilimidan foydalanishni, uni har xil sharoitda va har qanday holatda ishlata bilishni o’rganadi. Ijodiy o’yinlarda bolaning fantaziyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo’l ochiladi. O’yinda aqliy rivijlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O’yin bola hayotida benihoya katta o’rin egallaydi. Jumladan o’yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir.O’yinda ijodiy xayol, fikrlash qobilyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o’yin va o’yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi.Harakatli o’yinlarda harakatning go’zalligi va maromi bolalarni o’ziga maftun qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’yin jarayonini tashkil etishda pedagog quyidagilarga amal qilishi lozim ; bola shaxsining hamma tomonlariga ya’ni ongiga, his-tuyg’ulariga, irodasiga, xulqiga ta’sir etishi bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik, va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’tkaziladigan o’yin jarayoni bolalarning bilimlari va tasavvurlarini boyitadi. O’yinda u yoki bu rolni bajarayotib , bola o’zining butun diqqatini o’yinga qaratishi lozim. Bola o’ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to’g’risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, bolalar bilimiga aniqlik kiritadi. Undan tashqari o’yin bolalarda jamoa bo’lib ishlash qobilyatini ham shallantiradi. O’yin jarayonida bolalar o’z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o’yinda o’rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o’rgatadilar.[1]

O’yin mazkur izlanishlarda kutilgandek, markaziy bilim berishni rivojlantirish sifatida barcha tarbiyachilar joylashtirilgan. Bu turdagи konsepsual o’yinlar boshqa ko’plab amaliyotlarda ham bolalar tajribasi keng qo’llaniladi. O’quv qonuni reformatsiyasida Siyosatchi va amaliyotchi o’qituvchilar o’rtasidagi bir-biriga teskari bo’lgan fikrlar o’yining mavqeyini va darajasini belgilab beradi. Unda aytishicha

“Ochiq havoda yoki yopiq maskanda yaxshi tuzilgan o’yin, yosh bolalar uchun maroqli tuyuladi va ular qiziqish bilan dars mashg’ulotini o’tkazadilar” deyilgandi.[2]

Didaktik o'yin-bu maktabgacga yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lif berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, mavzu yuzasidan turli topshiriqlar va vazifalar berishda foydalanadi. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bola mashg'ulotlarida olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazrdan qaraganda olgan bilimlarini hayotga qo'llash uchun tajriba bo'ladi. Bunday o'yinlar sirasiga "U nima bu nima" "Joyini izla va top" "Rangi va ta'mi qanaqa" kabi o'yinlarni misol qilishimiz mumkin.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoniga bolalarni jalb qiladi, dars jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yinlar kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlarning mazmuni va turlari "MTT ta'lim ba tarbiya dasturi" da bayon qilingan va quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- A)buyumlar ularning nomlari, rangi, hajmi, shakli, haqidagi bilimlar berish.
  - B)mehnatning har xil turi va uning kishilar hayotidagi o’rni .
  - C)tabiat voqealari, narsalar buyumlar, yil fasllari.
  - D)dastlabgi matematik tushunchalar; son, sanoq, kattalik va shakl.[1]

Bolalar o'yinlari – bolalarni, aqliy, axloqiy, va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. O'yinlar bolalarni har tomonlama kamol topishiga katta ta'sir qiladi. O'yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok etadi. Bolalar o'yinlarining uch asosiy xususiyatlari bor . Birinchidan, bola o'yin faoliyatini o'z erki va xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, bu faoliyat jarayonida

ijodiylik va faollik ko'rsatadi. Uchinchidan,o'yin harakatlarining jo'shqinligi : bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o'rtoqlik hissi kuchayadi va hokazolar.[3]

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda o'yin bola faoliyatining asosiy ajralmas qismi hisoblanadi. Bola yoshligida qanchalik ko'p o'yin mashg'uloti bilan band bo'lgan bo'lsa uni hayotda o'z o'rnini topishi shunchalik tez va oson bo'ladi ya'ni barkamol shaxs bo'lib shakllanadi. O'yin bolalarni har tomonlama aqliy, jismoniy, estetik, psixologik tomondan rivojlantiradi. O'yin o'ynash davomida juda ko'p do'stlar orttiradi, jamoa bilan ishlashni o'rganadi. Undan tashqari hayotiy tajribalarga ega bo'ladi. Qoidali o'yinlarni o'ynash davomida bolalarda qabul qilishi yaxshilanib bilim olish jarayoni samaraliroq va mazmunli bo'ladi.

**Foydanilanilgan adabiyotlar**

1.F.R.Qodirova "Maktabgacha Pedagogika" kitobi Toshkent-2019 "TAFAKKUR" nashriyoti.

2.Oksfort Universiteti ta'lim tizimi (234) (CGFS) kitobidan.

3.uz.m.wikepedia.org, "Bolalar o'yinlari" O'zME. B-harfi Birinchi jild. Toshkent 2000.